

JANUBIY OROLBO'YI HUDUDLARIDA ANTROPOGEN LANDSHAFT VA TARIXIY-MADANIY JARAYONLARNING RIVOJLANISH VA TURISTLARNI JALB KILISHNING MINTAKA IQTISODIYATDA TUTGAN ORNI.

THE ROLE OF ANTHROPOGENIC LANDSCAPE AND HISTORICAL-CULTURAL PROCESSES IN THE REGIONAL ECONOMY OF THE DEVELOPMENT AND ATTRACTION OF TOURISTS IN THE SOUTHERN ISLAND REGIONS.

“Ma'mun Universiteti” NTM Iqtisodiyot va gumanitar fanlar fakulteti.

Iqtisodiyot kafedrasida o'qituvchisi ilmiy raxbar **Sherjonov Sherjon**
Iqtisodiyot yo'nalishi talabasi **Soporboyev Temurbek Sherzod o'g'li**

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada Jamiyatdagi aholi ma'lum bir qatlamining turizm sohasi va uning turlari, respublikada turizmning faoliyati, undagi islohotlar to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lish, shu sohaning rivoji va kishilar ma'naviyatini yuksaltirishda bir vosita bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Janubiy Orolbo'y, Qoraqum va Qizilqum, oqchadaryo, turizm, turizm turlari, O'zbekistondagi turizm oqimi va undagi islohotlar, turizmdagi asosiy ko'rsatkichlar.

Kirish: Janubiy Orolbo'y geografik o'rni jihatidan, Quyi Amudaryo havzasining o'ng va so'l sohillari yerlarini o'z ichiga olgan. Xorazm vohasi Qoraqum va Qizilqum oralig'idagi Turon pasttekisligining o'rta qismida joylashgan. Voha hududlarida baland tog'lar mavjud emas. O'ng sohil Amudaryo yerlaridagi Sulton Uvays tog'larining eng yuqori balandligi 500 metrdan oshmaydi. Shu bois shimoldan sovuq, janubdan issiq havo oqimlarining kirib kelishiga tabiiy to'siqlar bo'lmagan.

Xorazm vohasining tarixiy xususiyati shundan iboratki, u Volgabo'yi, Janubiy Ural va Shimoliy Qozog'iston dashtlarining janubiy chegaralarida joylashgan. Qadimdan dasht hududlarida yoyilgan qabilalar dastlab ovchilik, baliqchilik va undan keyingi davrlarda, asosan, chorvachilik bilan shug'ullanganlar¹.

Quyi Amudaryoning o'zgaruvchanligi – daryoning migratsiyasi tufayli, uning uchta o'zani – deltasi: Oqchadaryo, Sariqamishbo'yi va Orolbo'y o'zanlari vujudga kelgan. Xususan ularning qirg'oqlarida madaniy landshaft shakllanib, ibtidoiy urug'chilik jamoalari dastlab o'zlashtiruvchi va bronza davridan boshlab ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar bilan mashg'ul bo'lganlar².

Amudaryoning qadimiy Oqchadaryo deltasi hozirgi Sho'raxon tevaraklaridan boshlangan. Sulton Uvays tog'igacha yo'nalgan bu o'zan Janubiy Oqchadaryo va Qizilqumdan o'tib, Orol dengiziga quyilgan o'zan – Shimoliy Oqchadaryo deltasi deb ataladi.

Hozirgi zamonamizdagi iqtisodiyoti rivojlangan barcha davlatlarda har bir soha, tarmoq va yo'nalishlarga alohida e'tibor berilmoqda. Chunki, ular mamlakat iqtisodiyoti rivolanishi, aholi turmush darajasini yaxshilanishi va boshga bir gancha omillarga ma'lum bir ulushda hissa go'shib, ta'sir ko'rsatmoqda. Turizm sohasi xizmat ko'rsatish sohasini eng katta tarkibiy qismidir.

¹ **Matkarimov Xamidbek Olimbayevich monografiyasi.**

² **Matkarimov Xamidbek Olimbayevich monografiyasi.**

Turizm - bu sayohat qilishning bir turi bo'lib, unda kishilar dam olish, biznes qilish, boshqa xalqlar madaniyatini o'rganish kabi boshqa magsadlar uchun odatiy bo'lgan muhitdan tashqaridagi joylarga sayohat qilish tushuniladi. Hozirgi shiddatli zamonda turizmning bir gancha turlari mavjud. Jumladan, rekreatsion turizm, biznes turizm, ekskursiyaviy turizm, ekstremal turizm, madaniy va ma'rifiy turizm, VIP turizm, ya'ni qimmatli dam olish maskanlariga tashrif buyurish, ekoturizm, tog'turizmi, etnik turizm, dengiz turizmi va boshgalar.

Turizmning har bir turidan o'ziga yarasha shiddat zavqini, o'ziga ishonch hissini, jasorat va ma'naviyat kuchini, qiyinchiliklari yengib o'tish va boshqa o'ta marog'li tarbiyaviy, ibratli his-tuyg'ularni olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, turizm mamlakatdagi bir gator mintagalarning iqtisodiyoti va madaniyatiga faol ta'sir ko'rsatishdi. Masalan, turizmni faoliyat ko'rsatishi tizimining, sayyohlarga savdo, ijtimoiy-maishiy, madaniy, tibbiy xizmat ko'rsatishning rivojlanishi bilan yaqindan bog'liqdir.

Turizm boshqa sohalarga nisbatan tez taraqqiy etadigan tarmoqdir, chunki bu soha mamlakatimiz uchun unchalik katta investisiyani talab qilmasdan rivojlanishi mumkin bo'lgan sohadir. Boshqa sohalari, jumladan havo, temir yo'l, avtomobil transporti, ovqatlanish va savdo shahobchalari, mehmonxonalar rivoj topsa o'sha joyda turistik ob'ektlar mavjud bo'lsa bimalol turizmni rivojlantirish mumkin. Turizm sohasidagi mutaxassislar fikricha, u XXI asrda dunyo miqiyosida eng ustuvor foyda keltiruvchi sohaga aylanadi. Hozir u dunyo bo'yicha avtomobilsozlik va neftni qayta ishlash sohasidan keyin uchinchi o'rinni egallab turibdi. Bu soha dunyo sanoati va qishloq xo'jaligidan o'sib ketdilar.

Turizmning tez rivojlanishiga yana bir sabab, u yuqori darajadagi katta ilmiy tadqiqot xarajatini va quvvatni ko'p sarf qiladigan texnologiyani talab qilmaydi. Biroq, turizm boshqa sohalarni rivojlantirishni taqozo qiladi. Shu tufayli ushbu soha bilan ko'pgina xizmat ko'rsatuvchi sohalari bir-biri bilan uzviy bog'liq ravishda rivoj topmog'i lozim. Turizmning yuqori daromad keltiruvchi soha bo'lganligi tufayli ko'pgina davlatlar va tadbirkorlar uning rivojlanishi uchun katta e'tibor bermog'dalar. Ular yangi-yangi mehmonxonalarni qurmoqda, eskilarini rekonstruksiya qilib ta'mirlamoqda, qaysiki ularni ham jahon standartlari talablariga moslashtirmoqda. Bunga birgina Samarqand shahrida qurilgan o'nlab shaxsiy mehmonxonalarni misol keltirish mumkin³.

Ular hech kimning ta'ziqi yoki ko'rsatmasisiz o'z tashabbuslari bilan qurilgan ob'ektlardir. Maqsadi shu sohani rivojlantirib katta foyda olish. Bu esa o'z navbatida, turizmni rivojlantirish uchun eng muhim omillardan biridir. Bugungi globallashuv jarayonida qariyb barcha mamlakatlar iqtisodiy faoliyatida turizm sektori yuqori daromad manbai sifatida alohida ahamiyatga ega. Mazkur sohaning mamlakat iqtisodiyijtimoiy hayotiga ta'siri nafaqat valyuta tushumi, ish o'rni yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, balki ajdodlardan meros qolgan madaniyat va qadryatlarning saqlashning bosh omilidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Iqtisodiy adabiyotlarda turistik xizmatlarni rivojlanishining turli xil jihatlari bo'yicha nazariy va uslubiy muammolari o'rganilgan. Mamlakatimizda "Turizm to'g'risidagi Qonunning 3-moddasida turistik xizmatlar tushunchasi "Turistik xizmatlar turistik faoliyat subyektlarining

³ M.R.Boltabayev, I.S.Tuxliyev, B.Sh.Safarov, S.A.Abduxamidov Turizm: nazariya va amaliyot.

joylashtirish, ovqatlantirish, transport, axborot-reklama xizmatlari ko'rsatish borasidagi, shuningdek, turistlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan boshqa xizmatlar», deb ta'riflanadi.

O'zbek adabiyotlarida turistik xizmatlar - turist va ekskursant ehtiyojlarini qondirish va ta'minlashga qaratilgan, xizmat sohasidagi bir maqsadga yo'naltirilgan harakatlar to'plami bo'lib, ular turizm maqsadlari, xarakteri va turistik xizmatning qanday yo'naltirilganligiga javob berishi hamda umuminsoniy tamoyillarga qarshi bo'lmashligi kerak. Bu orqali turistik xizmatlar tushunchasini aniqroq tasavvur qilish mumkin.

Xorij adabiyotlarida turistik xizmatlar - bu moddiy ko'rinishga ega bo'lmagan mahsulot, uni ko'rish va saqlash mumkin emas. Bu turdagi xizmat turistdan talab bo'lganda amalga oshirilishi mumkin. Turistik xizmatlar birligi - bu ma'lum bir vaqt ichida bitta iste'molchiga ko'rsatiladigan xizmatlar majmuidir. Turistik xizmatlar birligi turistik xizmatlar tarkibiga tegishli bo'ladi.

Turistik xizmat tarkibiga xizmatlarni buyurtma qilish, tashish, joylashtirish va boshqa barcha rasmiylashtirish ishlari, tashib berishning barcha turlari, transfer, ovqatlantirish, ekskursiya va attraksionlar, tibbiy ko'rik va sug'urta, tarjimon xizmatlari, uchrashuvlar va boshqalar bilan ta'minlash kiradi. Xizmatlar tarkibiga yana guruh boshligi xizmati bilan gid-tarjimonning xizmati ham kiritilishi mumkin. Ushbu tarkibning o'zaro aloqasi turistik xizmatni shakllantiradi.

Turistik xizmatlar bozorining mohiyati va tarkibini aniqlashda xizmatlarning o'ziga xosligini ochib berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunga asosan, turistik xizmatlar quyidagi yetti xil o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi⁴:

- xizmatlarning sezilmasligi;
- mavsumiy ta'sir qilish;
- turistik xizmatlar o'zgarimasligi;
- turistik xizmatni sotish va uni iste'mol qilish o'rtasidagi vaqt farqi;
- turizm bozorida iste'molchi va ishlab chiqaruvchi o'rtasidagi hududiy bo'linish;
- turist turistik xizmat ko'rsatiladigan va iste'mol joyidan ajratib turadigan masofani bosib o'tishi.

5

2022-yil mart oyida O'zbekistonda barcha toifadagi mehmonxonalar va hostellarni o'rtacha band qilish bo'yicha statistik ma'lumotlar tahlili ijobiy o'zgarishlarni ko'rsatgan. 28—30-mart kunlari – uch kunlik davrdagi yuklama respublika bo'yicha 70,8 foizdan ortiq, Toshkent shahrida 83,6 foiz, Samarqandda 62,3 foiz, Qoraqalpog'istonda 93,9 foiz, Xorazmda 56,3 foiz, Buxoroda 46 foizni tashkil etgan. Bu juda yaxshi ko'rsatkichlar bo'lib, turizm industriyasining o'sishidan, mehmonxona biznesi uchun esa rentabellikning tez tiklanishidan darak beradi. 2017-yilda mehmonxonalarining bandlik darajasi 39,3 foizni, 2019-yilda – 53,1 foizni, pandemiyaning o'tkir davrida – 22,1 foizni, o'tgan yili bandlik ko'rsatkichi 36,3 foizni tashkil etgan.

⁴ Turizm to'g'risidagi qonun "Xalq so'zi" gazetasi № 147

⁵ Mirzayev M., Aliyeva M. Turizm asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent.

2019–2022-yillarda O‘zbekistonda bo‘lgan sayyohlar sonining tahlili sezilarli tiklanish dinamikasini ko‘rsatmoqda, garchi 2022-yilda bu ko‘rsatkich 15 foizga ortda qolayotgan bo‘lsa-da, xonalar soni 2019-yilga nisbatan 26 147 o‘rindan 33 411 tagacha, ya’ni 7264 ta mehmonxona xonasiga (21,7 foiz) oshgan. O‘zbekiston mehmonlari orasida mahalliy sayyohlar va mamlakat fuqarolaridan tashqari rossiyaliklar — 23,4 foiz, qozog‘istonliklar – 18,9 foiz, tojikistonliklar – 14,4 foiz, turkiyaliklar — 7,7 foizni tashkil etdi. Mehmonxonalarda yashovchi barcha xorijliklar: qirg‘izistonliklar — 6,3 foiz, belarusliklar — 4,6 foiz, xitoyliklar — 3,2 foiz, fransiyaliklar — 1,7 foiz. 2019-yilning pandemiyadan oldingi davrida 84,8 ming nafar chet el fuqarosi yashagan bo‘lib, umumiy ulushda eng ko‘p rossiyaliklar — 16,8 foizni, qozog‘istonliklar — 15 foizni, tojikistonliklar — 6,3 foizni, xitoyliklar — 6,1 foizni, afg‘onistonliklar — 5,7 foiz, turkiyaliklar — 5,5 foizni tashkil etgan.


TAHLIL VA NATIJALAR.

Bilamizki, turistik xizmatlar turistga turistik sayohat davomida ko‘rsatiluvchi, turistik ehtiyojlarini qondiruvchi, ko‘zda tutilgan turizm turi maqsadiga javob beruvchi va umuminsoniy tamoyillarga javob beruvchi xizmatlar majmuidir.

Mazkur xizmatlar quyidagi guruhlariga bo‘linadi:

- asosiy turistik xizmatlar;
- qo‘shimcha turistik xizmatlar.

Asosiy turistik xizmatlar turpaket tarkibiga kiruvchi barcha turistik xizmatlar: ovqatlantirish xizmatlari, transport va transfer xizmatlari, joylashtirish xizmatlari, gid ekskursiya xizmatlari va boshqalar kiradi. Qo‘shimcha turistik xizmatlarga turpaket tarkibiga kirmagan, turistlarni talablaidan kelib chiqib ko‘rsatiladigan va qo‘shimcha narx talab qiluvchi xizmatlar, ya’ni kiyimlarni kimyoviy tozalash xizmatlari, bank xizmatlari, sug‘urta xizmatlari, mashinalarni ijaraga berish xizmatlari, kurerlik xizmatlari va boshqalar kiradi⁶.



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida 6,6 mln nafar chet el fuqarolar
2022-yilning yanvar-dekabr oylarida 5,2 millionnafar chet el fuqarolar

⁶ Turizm to‘g‘risidagi qonun "Xalq so‘zi" gazetasi № 147

⁷ <https://kun.uz/uz/news/2023/01/18/2022-yilda-ozbekistonga-qancha-sayyoh-kelgani-malum-qilindi>

2021-yilning yanvar-dekabr oylarida 1,8 millionnafar chet el fuqarolar
2024-yilning yanvar-mart oylarida O'zbekistonga turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolarining mamlakatlar kesimida soni quyidagicha:

- **Tojikiston** — 536,5 ming nafar;
- **Qirg'iz Respublikasi** — 442 ming nafar;
- **Qozog'iston** — 262,6 ming nafar;
- **Rossiya** — 134,2 ming nafar;
- **Turkmaniston** — 31 ming nafar;
- **Turkiya** — 21,5 ming nafar;
- **Hindiston** — 11,6 ming nafar;
- **Xitoy** — 10 ming nafar;
- **Janubiy Koreya** — 7,6 ming nafar;
- **Germaniya** — 3,8 ming nafar;
- **Boshqa davlatlar** — 58,5 ming nafar⁸.

XULOSA.

Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishi, aholini turmush kechirish sharoitlarini yaxshilanishida, xalqaro maydonga chiqishi va unda munosib o'rin egallashida barcha sohalar bilan bir qatorda turizm sohasini ham o'rni salmoqlidir. Hozirda kishilar orasida turizmni keng targ'ib qilish maqsadida yurtimiz teleekranlarida O'zbekiston turizm salohiyatini, turli xil gadamjolarini, turistik maskanlarni, markazlari, yurtimizning g'aroyib, afsonaviy joylarini kecha-yu kunduz targ'ib qiluvchi, sayohatga doir turli xil ko'rsatuvlar namoyish etilmoqda, turizmni rivojlantirish bo'yicha subsidiyalar va boshqa rag'batlantirish vositalari ham qo'llanilmogda. Xorij davlatlardagi elchilar mamlakatimiz, milliy qadriyatlarimiz targ'ibotchilari bo'lishi, bunga chet eldagi vatandoshlarimiz ham hissa qo'shishlari zarur.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.

1. Turizm to'g'risidagi qonun "Xalq so'zi" gazetasi № 147
2. M.R.Boltabayev, I.S.Tuxliyev, B.Sh.Safarov, S.A.Abduxamidov Turizm: nazariya va amaliyot.
3. Розанова Т.П. Туристские услуги в системе потребительского рынка национальной экономики / Рос. экон. акад. им. Г. В. Плеханова. – М.Кнорус,
4. Mirzayev M., Aliyeva M. Turizm asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent.
5. Charles A. Goeldner, J.R. Brent Ritchie. Tourism Principles, Practices, Philosophies, New Jersey, John Wiley & Sons.
6. **Matkarimov Xamidbek Olimbayevich monografiyasi.**
7. <https://lex.uz/docs/-1531628>
8. <https://kun.uz/news/2024/03/22/ozbekistonning-2024-2025-yillarga-moljallangan-innovatsion-rivojlanish-strategiyasi-tasdiqlandi#>

⁸ <https://daryo.uz/2024/05/12/ozbekistonga-2024-yilning-uch-oyida-qancha-turist-kelgani-ochiqlandi>